



Majburiy elektr tebranishlar. Elektr rezonans.

1. O'zgaruvchan tok zanjiriga faqat aktiv qarshilikka ega bo'lgan rezistor ulangan. Kuchlanish va tok kuchi orasidagi faza farqi nimaga teng? A) π . B) $\pi/6$. (C) 0. D) $\pi/3$. E) $\pi/2$.
2. O'zgaruvchan tok zanjiridagi kuchlanish $u=200\sin(200\pi t)$ V qonun bo'yicha o'zgaradi. Qarshiligi $5\ \Omega$ bo'lgan rezistordan o'tayotgan tok kuchining amplituda qiymati necha amperga teng? (A) 40. B) 20. C) 15. D) 10. E) 5.
3. Tok zanjirida kuchlanish $u=400\sin 100\pi t$ (V) qonun bo'yicha o'zgaradi. Qarshiligi $5\ \Omega$ bo'lgan rezistordagi tok kuchining amplituda qiymati qanday (A)? A) 4. B) 8. C) 20. (D) 80. E) 800.
4. O'zgaruvchan tok zanjiridagi tok kuchi $i=5\cos(100\pi t+\pi/3)$ (A) qonun bo'yicha o'zgaradi. $20\ \Omega$ aktiv qarshilikka ega bo'lgan rezistordagi kuchlanishning amplituda qiymati topilsin (V). A) 1000. B) 500. (C) 100. D) 50. E) 5.
5. O'zgaruvchan tok kuchining ta'sir etuvchi qiymati ifodasini toping. A) $I=I_0\sin\omega t$. B) $I=q/t$ C) $I=\varepsilon/(R+r)$ (D) $I=I_0/\sqrt{2}$
6. O'zgaruvchan tok kuchining amplituda qiymati 6 A. Tok kuchining ta'sir etuvchi qiymati qanday (A)? A) 6. (B) $3\sqrt{2}$. C) $6\sqrt{2}$. D) 3. E) $2\sqrt{3}$.
7. O'zgaruvchan tokning amplituda qiymati $3\sqrt{2}$ A ga teng. Tok kuchining effektiv qiymati qanday (A)? A) $\sqrt{2}$. B) 2. C) $2\sqrt{2}$. (D) 3.
8. O'zgaruvchan tok kuchining amplituda qiymati 10 A bo'lsa, uning ta'sir etuvchi qiymati qanday (A)? A) 10. (B) $10/\sqrt{2}$. C) $10\sqrt{2}$. D) 20. E) 5.
9. O'zgaruvchan tok zanjiridagi kuchlanish $u=140\sin(100\pi t)$ V qonun bo'yicha o'zgarsa, kuchlanishning samarador qiymati necha voltga teng? A) 360
B) 220 C) 140 (D) 100
10. O'zgaruvchan tok zanjiridagi kuchlanishning vaqtga bog'lanish grafigidan foydalanib, kuchlanishning ta'sir etuvchi qiymatini toping (V). (A) $50/\sqrt{2}$. B) 50. C) 0. D) $50\sqrt{2}$. E) TJY.
11. Chizmadan foydalanib, tokning ta'sir qiymati va chastotasini toping. A) 7 A; 50 Hz. B) 3,8 A; 100 Hz. C) 5 A; 100 Hz.
D) 3,5 A; 220 Hz. (E) 5 A; 50 Hz.



12. O'zgaruvchan tok zanjiridagi kuchlanishning samarador qiymati 220 V.

Kuchlanishning amplituda qiymati nimaga teng (V)? A) 110. B) $220/\sqrt{2}$. (C) $220\sqrt{2}$. D) 220. E) 440.

13. Kuchlanishning o'zgarish qonuni $u=310\cos 100\pi t$ (V) ko'rinishga ega.

Kuchlanishning ta'sir etuvchi qiymati necha voltga teng? A) 50. B) 100. C) 127. (D) 220. E) 310.

14. O'zgaruvchan tok tarmog'ining voltmeter bilan o'lchanadigan kuchlanishi 220 V bo'lsa, kuchlanishning amplituda qiymati nimaga teng (V)? A) 110. B) 157. C) 220. (D) 310. E) 440.